

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEKANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	349
A. B. Qurbonov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	375
Masharipova Maksuda Beknazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
BILIMGA ASOSLANGAN AVTONOM AGENTLAR VA RAG TEXNOLOGIYALARI.....	387
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	395
Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KORPORATIV MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	399
Abduraxmonov Farrux Talipjanovich	
HUJUMLARNI ANIQLASH TIZIMLARIDA TAHDID MODELINI ISHLAB CHIQRISH	404
Barotova Zahro Akmaljon qizi	
G'ISHTNI QURITISH VA PISHIRISH JARAYONLARI.....	413
Askarov Xasanjon	
BUG' TURBINALI GENERATORLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIK YECHIMLARI	417
Xudoyqulov Zoki, Eshbekov Muxriddin	
EFFECTIVE WAYS TO USE DEVICES OPERATING IN A MECHATRONICS SYSTEM	421
Makhammaillo Aliboyev	
KREATIV IQTISODIYOT VA GENDER INKLYUZIV RIVOJLANISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	427
Sharipova Aziza Faxriddin qizi	



DAVLAT TASHKIOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH HOLATI VA INNOVATSION MODELAR TAHLILI	431
Xurshida Maxmadaminova	
O'ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	440
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSION MODEL OMILLARI VA DRAYVERLARI.....	446
Abruyeva Xilola Sherbekovna	
УПРОЩЕННЫЙ СПОСОБ ВЫЧЕРЧИВАНИЯ ПРОФИЛЯ ЗУБЧАТОГО КОЛЕСА ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ КУРСОВЫХ РАБОТ ПО «ТЕОРИИ МЕХАНИЗМОВ И МАШИН».....	455
Файзуллаев Асамитдин, Файзуллаев Салохитдин	
МОДЕЛИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	459
Джидибаева Гульзат, Абдуллаев Ильгор, Далиев Ахтам	
MAXSUS KIYIMBOR TO'QIMALAR UCHUN BAZALT XOMASHYOSINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	467
Mustanova Zilola Abdusamat qizi	
РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ И АЛГОРИТМОВ ПАРАМЕТРИЧЕСКОГО 3D-МОДЕЛИРОВАНИЯ ОДЕЖДЫ С УЧЁТОМ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ФИГУРЫ ЧЕЛОВЕКА	473
Каримбердиева Мохинур Шерзод кизи	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSATDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	481
Azamatov Po'lat To'lgunovich	
CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL MUHIT TUSHUNCHASI VA UNING FAZOVIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	487
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
ANDIJON SHAHRI BOBURSHOH KO'CHASIDA TRANSPORT VOSITALARINING XAVFSIZ HARAKATINI TASHKIL ETISH.....	495
Meliqo'ziyev Abdulaziz Rasuljon o'g'li	
CHAQIQ TOSH ISHLAB CHIQRISH TANNARXINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI	501
Qosimov Karimjon, Zuhritdinov Alisher, Kosimova Maloxatxon, Zo'xriddinov Dilmurod, Mahammadjonov Nurmahamad	
COMPOSITION ANALYSIS OF DEMERCAPTANIZED RESIDUAL STREAMS AND GAS CONDENSATES AS RAW MATERIALS FOR THE SYNTHESIS OF MERCAPTAN-CONTAINED ODORANTS	508
Tilloeva Shakhnoza Fakhritdinovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH NATIJADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI.....	514
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH NATIJADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Magistratura bo'lim boshlig'i

i.f.f.d (PhD), v.b. dotsent

Email: jonibekfayzullayev119@gmail.com

ORCID: 0009-0005-4475-6787

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruvni tashkil etish samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Innovatsion boshqaruvning iqtisodiy mazmuni, uning korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati hamda samaradorlikni baholashning zamonaviy yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-matematik modellar, qiyosiy tahlil, integral baholash usuli, statistik va iqtisodiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqotda Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi, DEA modeli, Malmkvist indeksi, umumiy omillar unumdorligi (TFP) hamda integral innovatsion indeksdan foydalanildi.

Kalit so'zlar: innovatsion boshqaruv, qurilish materiallari sanoati, innovatsion samaradorlik, iqtisodiy-matematik model-lashtirish, integral innovatsion indeks, innovatsion investitsiyalar.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations and practical aspects of assessing the effectiveness of innovation management in enterprises producing building materials. The economic essence of innovation management, its importance in enhancing the competitiveness of enterprises, and contemporary approaches to evaluating its effectiveness are analyzed from a scientific perspective. The study employs economic-mathematical models, comparative analysis, the integral assessment method, as well as statistical and economic analysis techniques. The research utilizes the Cobb–Douglas production function, the Data Envelopment Analysis (DEA) model, the Malmquist productivity index, Total Factor Productivity (TFP), and the Integral Innovation Index.

Keywords: innovation management, building materials industry, innovation efficiency, economic-mathematical modeling, Integral Innovation Index, innovation investments.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретико-методологические основы и практические аспекты оценки эффективности организации инновационного управления на предприятиях по производству строительных материалов. С научной точки зрения проанализированы экономическая сущность инновационного управления, его значение для повышения конкурентоспособности предприятий, а также современные подходы к оценке его эффективности. В ходе исследования использованы экономико-математические модели, сравнительный анализ, метод интегральной оценки, статистические и экономические методы анализа. В исследовании применены производственная функция Кобба—Дугласа, модель анализа среды функционирования (DEA), индекс Малмквиста, совокупная факторная производительность (TFP), а также интегральный индекс инновационного развития.

Ключевые слова: инновационное управление, промышленность строительных материалов, инновационная эффективность, экономико-математическое моделирование, интегральный индекс инновационного развития, инновационные инвестиции.

KIRISH

Sanoat tarmoqlarida qiymat yaratish zanjirining murakkablashib borishi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tizimli yondashuvni talab etmoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulotning xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan butun hayot sikli ko'plab o'zaro bog'liq texnologik va tashkiliy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mazkur jarayonlarning har bir bosqichida innovatsion yechimlarni qo'llash mahsulot qiymatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish imkonini



beradi. Biroq innovatsiyalarning iqtisodiy natijasi ularni boshqarish sifatiga hamda qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida amalga oshirilishiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Shu bilan birga, qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ida ekologik barqarorlikka qaratilgan talablarning ortishi innovatsion boshqaruvning mazmuniga yangi vazifalarni kiritmoqda. Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmini qisqartirish, sanoat chiqindilarini ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlash hamda «yashil iqtisodiyot» tamoyillarini joriy etish korxonalarning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu esa innovatsion boshqaruv samaradorligini baholashda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmasdan, ekologik va ijtimoiy natijalarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Zamonaviy korxonalarda strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish, ichki nazorat, biznes-jarayonlarni optimallashtirish va qaror qabul qilish tizimlarining samaradorligi innovatsion rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion boshqaruvni baholash nafaqat yangi texnologiyalarning joriy etilishi natijalarini, balki boshqaruv jarayonlarining institutsional sifatini ham qamrab olishi lozim. Bu esa korxona faoliyatining kompleks samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida korxonaning asosiy raqobat ustunligi faqat moddiy resurslar emas, balki intellektual salohiyat, tashkiliy bilimlar, innovatsion fikrlash madaniyati va bilimlarni boshqarish tizimi bilan belgilanadi. Ammo amaliyotda ushbu omillarning innovatsion boshqaruv samaradorligiga ta'sirini baholashga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ida resurslardan oqilona foydalanish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ikkilamchi xom ashyodan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik jihatdan takomillashtirish innovatsion boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. Biroq ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan innovatsion chora-tadbirlarning natijadorligini baholash bo'yicha yagona ilmiy yondashuv hali shakllanmagan.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini kompleks mezonlar asosida baholash, investitsiya va innovatsiya jarayonlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash, korporativ boshqaruv sifatini oshirish hamda tarmoqning barqaror va yuqori texnologik rivojlanishini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi. Bu esa tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati bilan bir qatorda, ularning amaliy qiymatini ham oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion boshqaruv masalasi xorijiy ilmiy adabiyotlarda korxonaning tashqi muhit o'zgarishlariga moslashish qobiliyati, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, texnologik yangilanish sur'ati va bozorda barqaror ustunlikka erishish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuvlar qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ushbu tarmoqda innovatsiya faqat yangi texnologiya sotib olish emas, balki resurslar, kadrlar, ishlab chiqarish jarayonlari va bozor strategiyasini o'zaro bog'liq holda boshqarishni talab etadi.

D. Tis, G. Pizano va E. Shuenning «dinamik qobiliyatlar» nazariyasi innovatsion boshqaruvni korxonaning ichki va tashqi kompetensiyalarini tez o'zgartirish, qayta tashkil etish va yangi sharoitlarga moslashtirish qobiliyati sifatida izohlaydi. Ularning tadqiqotida raqobat ustunligi faqat mavjud resurslarga emas, balki ushbu resurslarni o'z vaqtida qayta yo'naltira olish salohiyatiga bog'liqligi asoslangan [1]. Bu yondashuv qurilish materiallari korxonalari uchun muhim, ammo uning cheklangan tomoni shundaki, nazariyada tarmoqqa xos energiya sig'imi, ekologik talablar va xom ashyo bozorida beqarorlik kabi omillar yetarlicha ochib berilmagan.

U. Koen va D. Levintal «absorbtiv qobiliyat» tushunchasini ilgari surib, korxonaning tashqi bilimlarni qabul qilish, o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish salohiyati innovatsion natijadorlikning asosiy sharti ekanini ta'kidlaydi. Ularning fikri qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ayniqsa ahamiyatli, chunki sohadagi ko'plab innovatsiyalar ilmiy laboratoriyalar, xorijiy texnologiya yetkazib beruvchilar va muhandislik markazlari bilan hamkorlik orqali shakllanadi [2]. Biroq ushbu yondashuvda innovatsiyalarning iqtisodiy qaytimi va samaradorlikni o'lchash mezonlari nisbatan umumiy ko'rinishda berilgan.

I. Nonaka va X. Takeuchi bilimlar yaratish nazariyasi orqali innovatsion jarayonda yashirin bilimlar, xodimlar tajribasi va jamoaviy o'rganish muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bu qarash korxonalarda innovatsion madaniyatni shakllantirish zaruratini asoslaydi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishda texnologik jarayonlar ko'pincha xodimlarning amaliy tajribasiga bog'liq bo'lgani sababli ushbu nazariyaning amaliy ahamiyati yuqori [3]. Shu bilan birga, mazkur yondashuvda moliyaviy samaradorlik, investitsiya qaytimi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari yetarlicha aniqlashtirilmagan.

K. Kristensenning «buzuvchi innovatsiyalar» nazariyasi yirik va barqaror korxonalar ham yangi texnologik

o'zgarishlarga o'z vaqtida moslasha olmasa, bozordagi mavqeini yo'qotishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu g'oya qurilish materiallari sanoatida an'anaviy mahsulotlar bilan cheklanib qolish xavfini tushuntirishda muhimdir. Masalan, energiya tejankor, yengil, ekologik xavfsiz va yangi kompozitsion materiallar paydo bo'lishi an'anaviy ishlab chiqaruvchilardan boshqaruv strategiyasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi [4]. Ammo Kristensen yondashuvi asosan yuqori texnologiyali bozorlar misolida shakllangani uchun uni qurilish materiallari tarmog'iga moslashtirishda qo'shimcha tarmoq mezonlari talab etiladi.

G. Chesbro «ochiq innovatsiyalar» konsepsiyasida korxona innovatsion rivojlanishni faqat ichki resurslar hisobiga emas, balki tashqi g'oyalar, hamkorlik, litsenziyalash, ilmiy markazlar va bozor subyektlari bilan integratsiya orqali amalga oshirishi lozimligini ta'kidlaydi [5]. Bu yondashuv qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun dolzarb, chunki yangi texnologiyalar, sement qo'shimchalari, energiya tejovchi materiallar va qayta ishlangan xom ashyodan foydalanish ko'p hollarda tashqi bilimlar bilan bog'liq. Tanqidiy jihatdan qaralganda, ochiq innovatsiyalar modelida intellektual mulkni himoya qilish, hamkorlar o'rtasida manfaatlarni taqsimlash va innovatsion loyihalar xavfini baholash masalalari murakkabligicha qoladi.

J. Tidd va J. Bessant innovatsion boshqaruvni texnologik, bozor va tashkiliy o'zgarishlarni uyg'unlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Ularning yondashuvi innovatsiyani alohida loyiha emas, balki rejalashtirish, tanlash, joriy etish va natijani baholashdan iborat uzluksiz boshqaruv sikli sifatida ko'radi. Bu yondashuv maqola mavzusi uchun muhim, chunki innovatsion boshqaruv samaradorligini baholashda korxona faoliyatining bir nechta yo'nalishini bir vaqtda hisobga olish zarur [6]. Biroq ushbu model umumiy menejment xarakteriga ega bo'lib, qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi texnologik sikl, xom ashyo tarkibi va energiya sarfi kabi maxsus ko'rsatkichlarni alohida ishlab chiqishni talab qiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham innovatsion boshqaruvni rivojlantirish masalalari turli yo'nalishlarda tahlil qilingan. X. P. Abulqosimov O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish omillarini o'rganib, innovatsion taraqqiyotni institutsional islohotlar, davlat siyosati va iqtisodiy rag'batlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, unda innovatsion rivojlanish milliy iqtisodiyot darajasida baholanadi [7]. Biroq korxona darajasida samaradorlikni aniqlash, ayniqsa qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi subyektlar uchun maxsus baholash indikatorlari yetarlicha detallashtirilmagan.

B. B. Baxtiyorov sanoat korxonalari innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishning ustuvor omillarini tahlil qilib, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, xorij tajribasidan foydalanish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratadi [8]. Shu bilan birga, tadqiqot umumsanoat miqyosida olib borilgani sababli qurilish materiallari tarmog'ining yuqori energiya sarfi, ekologik yuklama va mahsulot hayot sikli kabi o'ziga xos jihatlari alohida chuqurlashtirishni talab qiladi.

Sh. Umidov sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvni samaradorligini statistik tahlil qilish masalasini o'rganib, innovatsion boshqaruv ko'rsatkichlarini baholash, muammolarni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga urg'u beradi. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, unda innovatsion boshqaruvni baholashda statistik yondashuvdan foydalanish zarurati ko'rsatilgan [9]. Biroq statistik tahlilni qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning texnologik va ekologik ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish masalasi yanada chuqurroq tadqiq etilishi lozim.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlar innovatsion boshqaruvni asosan nazariy modellar, strategik qobiliyatlar, bilimlar aylanishi va bozor o'zgarishlariga moslashuv nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa innovatsion boshqaruvning institutsional, tashkiliy va iqtisodiy jihatlari ko'proq yoritilgan. Biroq qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv samaradorligini baholashga qaratilgan, iqtisodiy, texnologik, ekologik, tashkiliy va kadrlar salohiyati ko'rsatkichlarini birlashtiruvchi kompleks metodik yondashuv hali yetarli darajada shakllanmagan. Shu jihatdan mazkur maqola mavjud ilmiy qarashlarni tarmoq xususiyatlari bilan bog'lash va innovatsion boshqaruv samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruvni tashkil etish samaradorligini baholash yo'llarini tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda sanoat korxonalari faoliyatiga ta'sir ko'rsatayotgan tashqi omillarning ko'lami va murakkabligi sezilarli darajada ortib bormoqda. Geosiyosiy jarayonlar, global ta'minot zanjirlaridagi o'zgarishlar, inflyatsiya jarayonlari, energiya resurslari bozorida noaniqliklar va texnologik raqobatning kuchayishi ishlab



chiqaruvchi korxonalardan yuqori darajada moslashuvchan boshqaruv tizimini talab qilmoqda. Bunday sharoitda innovatsion boshqaruv korxonalarning tashqi ta'sirlarga bardoshlilikini ta'minlaydigan asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shu bois uning samaradorligini baholash faqat ilmiy muammo emas, balki amaliy boshqaruv ehtiyoji ham hisoblanadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'i yuqori kapital sig'imiga ega bo'lganligi sababli innovatsion qarorlarning samaradorligini aniq baholash investitsiyalarning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun katta hajmda moliyaviy resurslar talab etiladi. Agar ushbu investitsiyalar samaradorligini baholashning aniq uslublari shakllantirilmagan bo'lsa, moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanish ehtimoli ortadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion boshqaruv natijadorligini baholash investitsiya qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Qurilish materiallari sanoatida innovatsion boshqaruv samaradorligini baholash bo'yicha mavjud yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat baholash usullari moliyaviy natijalar yoki innovatsion xarajatlardan iborat. Bunday yondashuv innovatsion boshqaruvning haqiqiy iqtisodiy natijasini to'liq aks ettirmaydi. Chunki innovatsion boshqaruvning ta'siri bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish texnologiyalari, resurslardan foydalanish samaradorligi, raqamli transformatsiya, inson kapitali va bozor faoliyati orqali namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari¹

№	Baholash mezonlari	Formula	Baholash mazmuni
1	Innovatsion faollik koeffitsiyenti (IFK)	$IFK = Ix / Q \times 100$	Innovatsion xarajatlarning mahsulot hajmidagi ulushi (%)
2	Mehnat unumdorligi (MU)	$MU = Q / L$	Bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi
3	Innovatsion investitsiya qaytimi (IROI)	$IROI = (\Delta F / Ix) \times 100$	Innovatsion xarajatlardan olingan iqtisodiy samara
4	Eksport samaradorligi (ES)	$ES = Ex / Q \times 100$	Eksport mahsulotlarining umumiy mahsulotdagi ulushi
5	Kapital samaradorligi (KS)	$KS = Q / K$	1 mlrd so'm investitsiya hisobiga mahsulot ishlab chiqarish
6	Integral innovatsion indeks (III)	$III = \sum W_i \cdot K_i$	Kompleks baholash indeksi

Jadvalda innovatsion boshqaruv samaradorligini baholash uchun oltita asosiy mezon taklif qilindi. Ushbu mezonlar bir vaqtning o'zida iqtisodiy, texnologik va investitsion samaradorlikni baholash imkonini beradi. Mavjud tadqiqotlarda asosan moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanilgan bo'lsa, mazkur yondashuv innovatsion faollik, mehnat unumdorligi va eksport salohiyatini ham integral baholash tizimiga kiritishi bilan farq qiladi.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion investitsiyalar samaradorligi koeffitsiyenti (Innovation Investment Efficiency Ratio – IIER)ni hisoblab chiqamiz. U quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$IIER = \frac{\Delta Q}{I}$$

bu yerda: ΔQ – mahsulot ishlab chiqarish hajmining yillik o'sishi (mlrd so'm);

I – innovatsion xarajatlari (mlrd so'm).

Ushbu koeffitsiyent innovatsion investitsiyalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini baholaydi.

Innovatsion resurslar qaytimi koeffitsiyenti

bu yerda: Q – mahsulot hajmi;

K – investitsiyalar;

I – innovatsion xarajatlari.

1 Manba: Iqtisodiy adabiyot va ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi

Innovatsion boshqaruv barqarorligi indeksi

$$IBI = \frac{MU \times ES}{IFK}$$

bu yerda: MU – mehnat unumdorligi;
ES – eksport ulushi;
IFK – innovatsion faollik koeffitsiyenti.

Innovatsion kapital samaradorligi koeffitsiyenti

$$IKS = \frac{MU}{K}$$

Innovatsion raqobatbardoshlik indeksi

$$ICI = \frac{MU + ES + IFK}{3}$$

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion boshqaruvni tashkil etish samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari, iqtisodiy mazmuni, baholash usullari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari kompleks o'rganildi. Tadqiqot jarayonida innovatsion boshqaruvning samaradorligiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va institutsional omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinib, Qashqadaryo viloyatida faoliyat yurituvchi MChJlar faoliyati misolida iqtisodiy-matematik baholash amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari qurilish materiallari sanoatida innovatsion boshqaruvni tashkil etishning samaradorligi faqat innovatsiyalarning joriy etilganligi bilan emas, balki ularning iqtisodiy natijalari, resurslardan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi, investitsiyalarning qaytimi, raqamli boshqaruv tizimlarining rivojlanganligi va bozor raqobatbardoshligi orqali ham belgilanishini ko'rsatdi. Bu esa innovatsion boshqaruvni baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, ko'p mezonli kompleks yondashuvdan foydalanish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan nazariy tahlillar innovatsion boshqaruvni baholash bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlarda yagona kompleks baholash tizimi mavjud emasligini ko'rsatdi. Aksariyat tadqiqotlarda innovatsiyalarning moliyaviy samarasi yoki texnologik natijalari alohida o'rganilgan bo'lib, boshqaruv jarayonlarining institutsional sifati, raqamli transformatsiya darajasi, innovatsion muhit va inson kapitali omillari yetarli darajada hisobga olinmagan. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda taklif etilgan integral baholash modeli innovatsion boshqaruvning iqtisodiy, texnologik, tashkiliy va bozor ko'rsatkichlarini yagona tizimda baholash imkoniyatini yaratadi.

Qashqadaryo viloyati qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, innovatsion investitsiyalar hajmining ortishi avtomatik ravishda yuqori iqtisodiy samarani ta'minlamaydi. Innovatsion resurslardan foydalanish natijalari qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining sifati, investitsiyalarning maqsadli yo'naltirilishi, texnologik modernizatsiyaning o'z vaqtida amalga oshirilishi va inson kapitali salohiyatiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan baholash modeli innovatsion boshqaruvni iqtisodiy, texnologik, tashkiliy, investitsion va bozor omillarining o'zaro ta'siri natijasi sifatida qarash imkonini beradi. Bu yondashuv innovatsion boshqaruvning ichki rezervlarini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // Strategic Management Journal. 1997. Vol. 18, No. 7. P. 509–533.
2. Cohen W.M., Levinthal D.A. Absorptive Capacity: A New Perspective on Learning and Innovation // Administrative Science Quarterly. 1990. Vol. 35, No. 1. P. 128–152.
3. Nonaka I., Takeuchi H. The Knowledge-Creating Company: How Japanese Companies Create the Dynamics of Innovation. New York: Oxford University Press, 1995.
4. Christensen C.M. The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail. Boston: Harvard Business School Press, 1997.



5. Chesbrough H.W. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Boston: Harvard Business School Press, 2003.
6. Tidd J., Bessant J. Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. 7th ed. Wiley, 2020.
7. Abulqosimov H.P. O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini ta'minlash omillari // Iqtisod va moliya. 2022. №3(151).
8. Baxtiyorov B.B. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishning ustuvor omillari // Iqtisod va moliya. 2022. №3(151).
9. Umidov Sh. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishning statistik tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2023. DOI: 10.5281/zenodo.10542861.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100